



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(7)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,  
27-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari .....	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni .....	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida .....	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli .....	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari .....	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir .....	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati ....	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari .....	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi .....	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов .....	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts .....	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari .....	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari .....	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish .....	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы:  
современные педагогические подходы.....86  
**Родина Ирина Витальевна**



# KASBIY FANLAR INTEGRATSIYASIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOT VOSITASIDA FILOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li

Termiz davlat universiteti

Kompyuter va dasturiy injiniring kafedraasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentliligini kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Kasbiy mazmun, interaktiv metodlar va elektron platforma modullarini yagona didaktik tizimda uyg'unlashtirish asoslangan. Axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, raqamli mahsulot yaratish va baholash faoliyatlarini spiralsimon tashkil etishning metodik imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot kompetentliligi, kasbiy fanlar integratsiyasi, dasturiy ta'minot, elektron ta'lim muhiti, integrativ metodlar, Think–Pair–Share, raqamli resurslar, filologik ta'lim.

**Abstract:** This article presents a methodology for developing the information competence of philology students through software based on the integration of professional disciplines. The study substantiates the integration of professionally oriented content, interactive teaching methods, and electronic platform modules within a unified didactic system. It examines the methodological possibilities of organizing students' activities in a spiral sequence, including information searching, selection, analysis, critical evaluation, processing, systematization, digital product creation, and assessment. Particular attention is paid to the integration of philological disciplines with information technologies, the use of digital educational resources, and the organization of students' independent learning and cognitive activities.

**Key words:** information competence, integration of professional disciplines, software, electronic learning environment, integrative methods, Think–Pair–Share, digital resources, philological education.

**Аннотация:** В статье раскрывается методика развития информационной компетентности студентов филологических направлений посредством программного обеспечения, основанного на интеграции профессиональных дисциплин. Обоснована необходимость объединения профессионального содержания, интерактивных методов обучения и модулей электронной образовательной платформы в единую дидактическую систему. Рассмотрены методические возможности спиралеобразной организации деятельности студентов, включающей поиск, отбор, анализ, критическую оценку, обработку и систематизацию информации, а также создание и оценивание цифровых продуктов. Особое внимание уделено интеграции филологических дисциплин с информационными технологиями, использованию цифровых образовательных ресурсов и организации самостоятельной учебно-познавательной деятельности студентов.

**Ключевые слова:** информационная компетентность, интеграция профессиональных дисциплин, программное обеспечение, электронная образовательная среда, интегративные методы, Think–Pair–Share, цифровые ресурсы, филологическое образование.

## KIRISH

Oliy ta'limning raqamli transformatsiyasi bo'lajak mutaxassisdan axborotni topish, saralash, ishonchliligini baholash, qayta ishlash, raqamli shaklda taqdim etish va kasbiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini talab etadi. Mazkur qobiliyatlar faqat kompyuter dasturlaridan texnik foydalanishni bilish bilan cheklanmaydi, balki axborotga tanqidiy munosabat, mualliflik huquqiga rioya qilish, raqamli xavfsizlik va o'z faoliyatini refleksiv

baholashni ham qamrab oladi. Shu ma'noda axborot kompetentligi bilim, amaliy harakat, motivatsiya va refleksiyaning o'zaro bog'langan tizimi sifatida qaraladi [3; 7].

Filologiya va tillarni o'qitish, xususan, ingliz tili yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar kelgusidagi kasbiy faoliyatida ingliz tilidagi ilmiy va metodik manbalar bilan ishlaydi, multimedia kontent yaratadi, elektron lug'atlar hamda korpuslardan foydalanadi, masofaviy darslarni tashkil etadi va raqamli kommunikatsiyani amalga oshiradi. Biroq "Axborot texnologiyalari" fani kasbiy fanlardan ajratilgan holda o'qitilganda talaba egallagan texnik ko'nikmalarni real filologik yoki pedagogik vazifaga ko'chirishda qiyinchilik yuzaga keladi. Demak, muammo kompyuter vositalarini o'rgatishning o'zida emas, balki ularni kasbiy mazmun va faoliyat bilan didaktik jihatdan bog'lashdadir.

Tadqiqotning maqsadi - filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini kasbiy fanlar mazmuni bilan integratsiyalashgan dasturiy ta'minot vositasida rivojlantirish metodikasini ilmiy-metodik jihatdan asoslash. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashirish, ta'lim mazmunini loyihalash, kuzatish, diagnostik baholash va natijalarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy fanlar integratsiyasi "Axborot texnologiyalari" fanining mavzu va vositalarini filologik ta'lim mazmuniga mexanik qo'shish emas. U o'quv maqsadi, mazmun, faoliyat turi, raqamli vosita, yakuniy mahsulot va baholash mezonlarini bir-biriga muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv Jerome S. Bruner tomonidan ilgari surilgan bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish g'oyasi hamda Lev S. Vygotskiyning ta'lim jarayonida faoliyat va hamkorlikning ustuvorligi haqidagi qarashlari bilan uyg'unlashadi. Bunda har bir texnologik ko'nikma kasbiy vazifa orqali o'zlashtiriladi: matn muharriri - ilmiy yoki metodik matn tayyorlash, elektron jadval - til birliklarini tizimlashtirish, multimedia vositalari - og'zaki nutq va taqdimot, qidiruv tizimlari - ilmiy manbalarni tanlash, masofaviy platformalar esa onlayn darsni loyihalash vositasiga aylanadi.

Taklif etilayotgan metodikada axborot kompetentligining rivojlanishi to'rtta o'zaro bog'langan mezon orqali ko'riladi:

- motivatsion mezon talabaning raqamli vositalardan kasbiy maqsadda foydalanishga ehtiyoj va qiziqishini;
- kognitiv mezon axborot, dasturiy vositalar va raqamli xavfsizlikka oid bilimlarini;
- operatsion-amaliy mezon axborotni izlash, qayta ishlash va raqamli mahsulot yaratish qobiliyatini;
- refleksiv-analitik mezon esa olingan natijani baholash, xatolarni aniqlash va faoliyatni takomillashtirish ko'nikmasini ifodalaydi.

Mazkur mezonlar o'quv topshiriqlarining mazmuni va baholash vositalarini bir tizimda loyihalash imkonini beradi. Integrativ ta'limning nazariy tayanchi sifatida bilimni faoliyat va muloqot jarayonida o'zlashtirish, o'quv materialini qayta-qayta, lekin tobora murakkablashib boruvchi darajada tashkil etish, tajriba va refleksiya birligini ta'minlash g'oyalari muhimdir [1; 2; 4]. Mazkur yondashuv David A. Kolbning tajribaga asoslangan o'qitish modeli hamda John Biggsning konstruktiv muvofiqlik tamoyili bilan ham ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuning uchun dasturiy ta'minot tayyor ma'lumotni yetkazib beruvchi ombor emas, balki talabaning mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatini boshqaruvchi didaktik muhit vazifasini bajarishi lozim.

Raqamli resurslarni intensivlashtirish deganda ularning sonini ko'paytirish emas, balki ta'limiy vazifaga muvofiq tanlash, foydalanish chastotasi va mustaqillik darajasini bosqichma-bosqich oshirish, bir necha turdagi resursni yagona kasbiy natijaga yo'naltirish tushuniladi. Bu borada Paul Gilster raqamli savodxonlikni axborotni izlash, tahlil qilish va tanqidiy baholash kompetensiyasi sifatida talqin qiladi, European Commission tomonidan ishlab chiqilgan DigComp 2.2 modeli esa raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy mezonlarini belgilab beradi.

Elektron lug'atlar, korpus texnologiyalari, ilmiy ma'lumotlar bazalari, multimedia muharrirlari, ta'lim platformalari va sun'iy intellekt vositalari talabaning axborot bilan ishlash siklining turli bosqichlarini qo'llab-quvvatlaydi. O'quv materiallarini spiralsimon tashkil etishda bir xil kompetensiya yangi mazmun va murakkabroq vazifada takroran faollashtiriladi. Dastlab talaba dasturiy vositaning asosiy funksiyalarini o'zlashtiradi; keyingi bosqichda ularni kasbiy mazmundagi ma'lumotlarni qayta ishlashga tatbiq etadi; uchinchi bosqichda bir necha vositani birlashtirib mustaqil raqamli mahsulot yaratadi; yakuniy bosqichda mahsulotning mazmuniy, texnik va etik sifatini mezonlar asosida baholaydi. Shu tariqa oddiy amaliy harakatdan mustaqil kasbiy

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlar metodikaning mazmuniy yadrosini tashkil etadi. Bunday topshiriqda talaba bir vaqtning o'zida axborot texnologiyalariga oid operatsiyani bajaradi va filologik yoki pedagogik muammoni hal etadi. Quyidagi jadval "Axborot texnologiyalari" fanining asosiy mavzularini ingliz tili yo'nalishidagi kasbiy fanlar bilan bog'lash imkoniyatlarini ifodalaydi.



Dars jarayonini puxta rejalashtirish metodikaning samarali ishlashi uchun zarur shartdir. Har bir mavzu bo'yicha tuziladigan texnologik xaritada dars maqsadi, kutilayotgan natijalar, integratsiyalashgan kompetensiyalar, kasbiy topshiriq, foydalaniladigan dasturiy vositalar, mustaqil va hamkorlik faoliyatining ketma-ketligi hamda baholash mezonlari belgilanadi. Bu o'qituvchiga texnologiyani maqsadga aylantirib yubormasdan, uni aniq didaktik natijaga xizmat qildirish imkonini beradi.

Loyihalash metodi talabani muammoni aniqlashi, ish rejasini tuzishi, ishonchli manbalarni tanlashi, axborotni qayta ishlashi va yakuniy raqamli mahsulotni taqdim etishini talab qiladi. Filologiya talabalari uchun elektron taqdimot, multimedia hikoya, mavzuli podkast, raqamli lug'at, interaktiv mashq yoki onlayn dars fragmenti kabi loyihalar kasbiy va axborot kompetensiyalarini birgalikda rivojlantiradi. Tajriba, faol sinov va refleksiya birligiga asoslangan mazkur faoliyat talabani bilimni tayyor shaklda qabul qilishi emas, balki uni amaliy vazifa jarayonida qayta qurishini ta'minlaydi <sup>[4]</sup>.

Think–Pair–Share kooperativ strategiyasi elektron o'quv muhiti bilan uyg'unlashganda individual fikrlash, juftlikdagi muzokara va guruh oldida asoslangan xulosa taqdim etish jarayonlarini birlashtiradi <sup>[5]</sup>. Metod quyidagi ketma-ketlikda qo'llanadi:

- **Think** - individual fikrlash - talaba ingliz tilidagi matn yoki muammoli topshiriqni mustaqil o'rganadi, elektron lug'at, korpus, ilmiy qidiruv tizimi yoki sun'iy intellekt vositasidan foydalanib tushunarsiz birliklarni aniqlaydi va dastlabki xulosani shakllantiradi.
- **Pair** - juftlikda ishlash - talabalar topilgan axborotning ishonchligi va mazmunini qiyoslaydi, fikrlarni dalillar bilan tekshiradi, topshiriq yechimini takomillashtiradi va umumiy variantni ishlab chiqadi.
- **Share** - guruhda taqdim etish - juftlik yoki kichik guruh Miro, Padlet, Google Slides kabi vositalarda natijani vizuallashtiradi, auditoriya oldida taqdim etadi va savol-javob asosida o'z xulosasini himoya qiladi.

Mazkur strategiya talabani faqat muloqot faolligini emas, axborotni tanlash, tekshirish, dalillash va boshqalarga tushunarli shaklda taqdim etish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Biroq platforma yoki interaktiv metodning o'zi avtomatik ravishda kompetentlikni shakllantirmaydi. Natija topshiriqning kasbiy mazmuni, o'qituvchi yo'riqnomasi, mezonli baholash va talabani refleksiyasi bilan belgilanadi.

Tadqiqot doirasida axborot.e-darslar.uz elektron platformasining mazmuni kasbiy fanlar integratsiyasiga moslashtirildi. Platformada shaxsiy kabinet, ma'ruza va amaliy mashg'ulot materiallari, videodarslar, interaktiv topshiriqlar, test va quizlar, baholash hamda refleksiya elementlarining o'zaro bog'langan holda ishlashi ko'zda tutiladi. Har bir modul texnik ma'lumotni berish bilan cheklanmay, uni ingliz tili yo'nalishidagi kasbiy vazifa orqali mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda integrativ metod vositalarining pedagogik kompozitsiyasi deganda o'quv maqsadi, kasbiy mazmun, pedagogik texnologiya, raqamli vosita, o'quv mahsuloti va baholash mezonlarining yagona didaktik tizimda muvofiqlashtirilishi tushuniladi. Ushbu kompozitsiya metodikaning tasodifiy vositalar to'plamiga aylanib qolishining oldini oladi. Uning amaliy mexanizmi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Diagnostik-maqsadli bosqich** - talabani boshlang'ich axborot kompetentligi aniqlanadi, mavzuning kasbiy natijasi va baholash mezonlari belgilanadi.
2. **Mazmuniy-integrativ bosqich** - "Axborot texnologiyalari" mavzusi tegishli kasbiy fan mazmuni va real faoliyat vazifasi bilan bog'lanadi.
3. **Faoliyatli-amaliy bosqich** - talaba individual, juftlik va guruh shakllarida axborotni izlaydi, tahlil qiladi va dasturiy vositalar yordamida qayta ishlaydi.
4. **Mahsulotli-taqdimot bosqichi** - o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar elektron hujjat, jadval, multimedia material, infografika yoki onlayn dars kabi yakuniy mahsulotda namoyon bo'ladi.
5. **Baholash-refleksiv bosqich** - mahsulot mezonlar asosida o'zaro va o'qituvchi tomonidan baholanadi, xato va yutuqlar tahlil qilinib, keyingi faoliyat uchun tuzatishlar belgilanadi.

Ushbu tuzilma ta'lim mazmuni, metod va elektron vositalar o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ta'minlaydi. Bunda konstruktiv muvofiqlik tamoyiliga ko'ra kutilayotgan natija, o'quv faoliyati va baholash bir-biriga mos bo'lishi zarur <sup>[6]</sup>. Masalan, talabani ilmiy axborotning ishonchligini baholash talab etilsa, topshiriq faqat qidiruv tizimidan ma'lumot topish bilan cheklanmasligi, manbani muallifi, nashri, sanasi, dalillari va boshqa manbalar bilan muvofiqligini tahlil qilishni ham o'z ichiga olishi lozim.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilgan metodikaning ustunligi texnik va kasbiy tayyorgarlikni bitta faoliyat natijasida birlashtirishidir. Talaba dastur funksiyasini alohida mashq qilish o'rniga, uni real kasbiy mahsulot yaratishda qo'llaydi. Bu bilimning yangi vaziyatga ko'chirilishini, mustaqil ta'limni va raqamli resurslardan ongli foydalanishni kuchayti-

radi. Shuningdek, platformadagi monitoring va refleksiya elementlari talabaniq faqat yakuniy natijasini emas, topshiriqni bajarish jarayonini ham kuzatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, metodikaning samaradorligini mutlaqlashtirish to'g'ri emas. Barqaror internet, zarur qurilmalar, sifatli elektron kontent, o'qituvchining raqamli-metodik tayyorgarligi va aniq baholash mezonlari bo'lmasa, dasturiy vosita kutilgan natijani bermaydi. Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda esa tayyor javobni ko'r-kona qabul qilish, akademik halollikning buzilishi, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va noto'g'ri axborot tarqalishi xavflari mavjud. Shu sababli metodika texnik ko'nikma bilan bir qatorda tanqidiy baholash, manbalarni tekshirish, mualliflik huquqi va raqamli etika talablarini ham qamrab olishi shart.

Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish uchun yaxlit didaktik muhit yaratadi. Bunda dasturiy ta'minot o'quv materialini saqlash va uzatish vositasi bo'lib qolmay, kasbiy mazmun, interaktiv metodlar, mustaqil ta'lim, hamkorlik faoliyati, raqamli mahsulot yaratish va mezonli baholashni birlashtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Metodikaning mazmuniy yadrosi "Axborot texnologiyalari" mavzularini ingliz tili yo'nalishidagi kasbiy fanlarning real vazifalari bilan bog'lashdan iborat. O'quv topshiriqlarining spiralsimon ravishda oddiy texnik operatsiyadan axborotni tahlil qilish, mustaqil raqamli mahsulot yaratish va reflektiv baholash darajasi-gacha murakkablashtirilishi kompetentlikning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Think-Pair-Share, loyihalash, muammoli va tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim metodlarining platforma modullari bilan uyg'unligi esa individual hamda hamkorlikdagi faoliyatni faollashtiradi.

Shunday qilib, o'quv maqsadi, kasbiy mazmun, integrativ metod, raqamli vosita, yakuniy mahsulot va baholash mezonlarining pedagogik kompozitsiyasi talabalarining axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, qayta ishlash, taqdim etish va kasbiy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishning metodik asosini tashkil etadi. Keyingi tadqiqotlarda mazkur metodikaning natijadorligini motivatsion, kognitiv, operatsion-amaliy va reflektiv-analitik mezonlar bo'yicha tajriba va nazorat guruhlari natijalarini statistik qiyoslash orqali chuqur baholash maqsadga muvofiq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bruner, J. S. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.
2. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
3. Gilster, P. Digital Literacy. New York: Wiley Computer Publishing, 1997.
4. Kolb, D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984.
5. Lyman, F. The Responsive Classroom Discussion: The Inclusion of All Students // Mainstreaming Digest / Ed. by A. S. Anderson. College Park, MD: University of Maryland, 1981. P. 109–113.
6. Biggs, J., & Tang, C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. Maidenhead: Open University Press, 2011.
7. Vuorikari, R., Kluzer, S., & Punie, Y. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(7)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.